(4). Abdullayev A. (2018). Yozma matnda tinish belgilarining stilistik vazifalari. Toshkent, O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
(5). Crystal D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press.
(6). Trask R.L. (1999). Language: The Basics. London, Routledge.
(7). Lyons J. (1981). Language and Linguistics: An Introduction. Cambridge, Cambridge University Press.
(8). Halliday M.A.K. (1994). An Introduction to Functional Grammar. London, Edward Arnold.
(9). Palmer F.R. (1981). Semantics. Cambridge. Cambridge University Press.
(10). Fromkin V., Rodman R., Hyams N. (2013). An Introduction to Language. Boston, Wadsworth Cengage Learning.
(11). Leech G., Svartvik J. (2002). A Communicative Grammar of English. London, Longman.
(12). Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. (1985). A Comprehensive Grammar of the English Language. London, Longman.
(13). Crystal D. (1997). A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Oxford, Blackwell.
(14). Saussure F. de (1916). Course in General Linguistics. New York, McGraw-Hill.
(15). Halliday M.A.K. (2004). An Introduction to Functional Grammar (3rd ed.). London, Hodder Arnold.

Yakubova Nilufar Egamberganovna (Urganch davlat Pedagogika instituti katta o‘qituvchisi; niilufar.yakubova@gmail.com)

G‘AYRI SOLIM O‘ZAKLAR: MUZOAF (IKKILANGAN) O‘ZAKLAR TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada arab tilidagi uch undoshli o‘zaklar tizimi, xususan, g‘ayri solim (noto‘g‘ri) o‘zaklarning asosiy turlari B.M.Grande tasnifi asosida tahlil qilingan. Unda muzoaf (ikkilangan), mahmuz (hamzali) o‘zak va mu’tal (zaif) o‘zaklarning fonetik, morfologik hamda etimologik xususiyatlari yoritilib, ushbu o‘zaklardan yasalgan so‘zlarning eski o‘zbek tiliga o‘zlashish jarayoni ilmiy asosda ko‘rib chiqilgan. Maqolada ayrim leksik birliklar misolida arab tili morfologiyasi va mumtoz o‘zbek adabiy tili o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ochib berilgan. Shuningdek, somiy tillararo qiyosiy ma’lumotlar asosida tashdid hodisasining tarixiy shakllanishi va semantik kengayish jarayonlari izohlangan.*

Kalit so‘zlar: *uch undoshli o‘zak, solim va g‘ayri solim o‘zaklar, muzoaf(ikkilangan) o‘zak, somiy tillar, eski o‘zbek tili, o‘zlashma so‘zlar, mumtoz o‘zbek adabiy tili, mahmuz (hamzali) o‘zak, mu’tal (zaif) o‘zak, fonetik moslashuv, o‘zlashma so‘zlar, B.M.Grande tasnifi, arab grammatik modeli.*

Якубова Нилуфар Эгамберганoвна (старший преподаватель, Ургенчский государственный педагогический институт; niilufar.yakubova@gmail.com)

НЕОБОСНОВАННЫЕ ОСНОВАНИЯ: АНАЛИЗ ДВОЙСТВЕННЫХ ОСНОВАНИЙ

Аннотация. *В данной статье система трехсогласных корней в арабском языке, в частности, основные типы неправильных корней, анализируются на основе классификации Б.М.Гранде. В ней освещаются фонетические, морфологические и этимологические особенности двойных корней с символом хамзы и слабых корней, а также на научной основе рассматривается процесс заимствования слов, образованных от этих корней, в староузбекский язык. В статье на примере некоторых лексических единиц раскрывается неразрывная связь между морфологией арабского языка и классическим узбекским литературным языком. Также на основе сопоставительной информации между самийскими языками объясняются процессы исторического формирования и семантического расширения феномена двойственности.*

Ключевые слова: *трёхсогласный корень, совершенные и несовершенные корни, двойной корень, семитские языки, староузбекский язык, заимствованные слова, классический узбекский литературный язык, корень с символом хамзы, слабый корень, фонетическая адаптация, заимствованные слова, классификация Б.М.Гранде, арабская грамматическая модель.*

Yakubova Nilufar Egamberganovna (Senior Lecturer Urgench state pedagogical institute; niilufar.yakubova@gmail.com)

IRREGULAR ROOTS: AN ANALYTICAL STUDY OF REDUPLICATED ROOTS

Annotation. *In this article, the system of three-consonant roots in the Arabic language, particularly the main types of irregular roots, is analyzed based on B.M.Grande’s classification. It illuminates the phonetic, morphological, and etymological features of double, hamza root, and weak roots, as well as the process of borrowing words formed from these roots into the old Uzbek language on a scientific basis. The article reveals the inseparable connection between Arabic morphology and classical Uzbek literary language through the example of some lexical units. Also, based on comparative information between Sami*

languages, the processes of historical formation and semantic expansion of the phenomenon of duality are explained.

Keywords: *three-vowel root, perfect and imperfect roots, double root, Semitic languages, Old Uzbek language, borrowed words, classical Uzbek literary language, Hamza-symbol root, weak root, phonetic adaptation, borrowed words, B.M Grande classification, Arabic grammatical model.*

Kirish (Introduction). Arab tili morfologiyasi, xususan, uch undoshli o‘zaklar tizimi somiy tillar tilshunosligining markaziy va murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu tizim nafaqat arab tilining ichki grammatik tuzilishini belgilaydi, balki tarixan arab tili bilan uzviy aloqada bo‘lgan boshqa tillar, jumladan, eski o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va leksik tarkibini tadqiq etishda ham muhim metodologik asos vazifasini bajaradi. Eski o‘zbek tiliga arab tilidan o‘zlashgan ko‘plab mavhum va aniq tushunchalar aynan uch undoshli o‘zaklar, xususan, solim va g‘ayri solim o‘zaklar asosida shakllangan bo‘lib, ularning fonetik qiyofasi va semantik nozikliklarini anglash arab morfologik modelini chuqur bilishni taqozo etadi.

Tadqiqot muammosi shundan iboratki, mavjud ilmiy adabiyotlarda arabcha o‘zaklarning umumiy tavsifi yetarlicha yoritilgan bo‘lsa-da, g‘ayri solim o‘zaklarning (muzoaf, mahmuz va mu’tal) eski o‘zbek tiliga o‘zlashish jarayonidagi fonetik-morfologik moslashuvi tizimli ravishda kam tadqiq etilgan. Ayniqsa, muzoaf o‘zaklarning tashdid hodisasi bilan bog‘liq tarixiy-fonetik mohiyati, hamzali o‘zaklarning imloviy va talaffuzdagi tafovutlari hamda zaif o‘zaklardan yasalgan so‘zlarning mumtoz matnlardagi ma’no yuklamasi yetarli darajada kompleks tahlil qilinmagan.

Tadqiqot mavzusining tanlanishi arab va turkiy tillar o‘rtasidagi tarixiy-lisoniy aloqalarni chuqurroq anglash zarurati bilan izohlanadi. Bugungi kunda mumtoz o‘zbek adabiy merosini talqin qilish, tasavvufiy va falsafiy matnlardagi asosiy tushunchalarni to‘g‘ri anglash uchun ularning arabcha etimologik negizlarini ochib berish dolzarb ilmiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu jihatdan, mazkur tadqiqot nafaqat tarixiy tilshunoslik, balki matnshunoslik va adabiyotshunoslik uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Arab tilidagi uch undoshli o‘zaklar tizimi va uning g‘ayri solim turlari somiy tillar morfologiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda muhim o‘rin egallab kelgan. Mazkur masala bo‘yicha shakllangan ilmiy an’ana, avvalo, klassik arab grammatik maktabi namoyandalarining asarlariga borib taqaladi. Sibavayhning “Al-Kitob” asari arab tilidagi solim va g‘ayri solim fe’llar, hamza va zaif undoshlar bilan bog‘liq fonetik-morfologik hodisalarni ilk bor nazariy jihatdan izchil bayon qilgan fundamental manba sifatida baholanadi. Unda muzoaf, mahmuz va mu’tal o‘zaklarning fe’l yasalishidagi xususiyatlari, ularning talaffuz va imlodagi o‘zgarishlari grammatik me’yorlar asosida tavsiflangan.

Yevropa sharqshunoslik maktabida ushbu masalalar XIX–XX asrlarda chuqurroq ilmiy tahlil etila boshladi. Xususan, B.M.Grande arab tili grammatikasini tarixiy-fonetik nuqtayi nazardan yoritib, g‘ayri solim o‘zaklar tizimini mukammal tasnif qilgan olimlardan biridir. Uning ishlarida muzoaf o‘zaklardagi tashdid hodisasi ikki alohida undosh emas, balki yagona “kuchaytirilgan” tovush sifatida talqin qilinishi bilan e’tiborlidir. Grande shuningdek, ikkilangan undoshlarning qadimgi somiy tillardagi sodda shakllari bilan qiyosiy tahlilini berib, tashdid hodisasining tarixiy taraqqiyot mahsuli ekanini ilmiy dalillar asosida ko‘rsatadi.

Arab leksikografiyasi sohasida Edvard Uilyam Leynning “Arabcha–inglizcha lug‘ati” alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda uch undoshli o‘zaklarning semantik yadrosi va undan kelib chiqqan leksik birliklarning ma’no rivoji batafsil hujjatlashtirilgan. Leyn lug‘atida sunnat, sinn, sinon kabi so‘zlarning bir o‘zakdan kelib chiqishi izchil ko‘rsatilib, ularning metaforik va madaniy qatlamlari yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Arab tilidagi uch undoshli o‘zaklarning “noto‘g‘ri” (g‘ayri solim) turlari ichida muzoaf (الْمُضَعَّف), ya’ni “ikkilangan” o‘zaklar alohida o‘rin tutadi. Bunday o‘zaklarning asosiy belgisi ikkinchi va uchinchi o‘zakdosh undoshlarining bir xil bo‘lishidir. B.M. Grande bu hodisani fonetik jihatdan tahlil qilib, ikki bir xil undoshning yonma-yon kelishi aslida ikki alohida tovush emas, balki birinchisi bo‘g‘inni yopib, ikkinchisi yangi bo‘g‘inni ochuvchi yagona, ammo “kuchaytirilgan” (arab. مُشَدَّد - mushaddad) tovush ekanini ta’kidlaydi. Bu hodisa o‘zbek tiliga kirib kelgan so‘zlarda tashdid (ّ) belgisi orqali o‘z aksini topgan.

Bu turdagi o‘zaklarning asosiy morfologik xususiyati shundaki, ulardan yasalgan fe’l va otlarning ba’zi shakllarida ikkilangan undoshlar orasiga unli kiritiladi va ular ajralib keladi (masalan, arabcha *madadta* – “madad berding”), boshqa shakllarida esa unli tushib qolib, ikki undosh birlashadi va tashdidli talaffuz qilinadi (masalan, *madda* – “madad berdi”).

Eski o‘zbek tiliga aynan shu ikkilangan undoshli negizlardan yasalgan juda ko‘p muhim mavhum va aniq otlar o‘zlashgan. Bu so‘zlarning fonetik qiyofasini va ba’zan ma’no nozikliklarini tushunish uchun ularning muzoaf o‘zakka mansubligini bilish muhimdir.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Quyida eski o‘zbek tilida faol qo‘llangan ba’zi muzoaf o‘zaklar va ulardan yasalgan so‘zlar guruhini ko‘rib chiqamiz:

s-r-r (س-ر-ر). Bu o‘zak “yashirin bo‘lmoq”, “xursand bo‘lmoq” ma’nolarini anglatadi. Sir (سِرٌّ): O‘zbek tilida “yashirin narsa, asror” ma’nolarida o‘zlashgan. Masalan, “Kimga-kim sirridin xabar berding, Juz aning sirridin xabar berding” (Hayrat ul-abror). *Asror* (أَسْرَارٌ): “Sir” so‘zining af’ol vaznidagi siniq ko‘pligi. Masrur (مَسْرُورٌ) “Xursand, shod” ma’nosida.

m-d-d (م-د-d): O‘zagi “cho‘zmoq, yordam bermoq” ma’nolarini bildiradi.

Muddat (مُدَّةٌ): “Vaqt, muhlat” ma’nosida. Masalan, “...muddat-i madidu ahdi ba’id har-nav’ shiqq-u suvratta iqdom urdum” (“Mahbub ul-qulub”).

Madad (مَدَدٌ) – yordam, ko‘mak.

h-q-q (ح-ق-ق) o‘zagi “haqiqat, to‘g‘rilik” ma’nolarini ifodalaydi.

Haq (حَقٌّ) – “rostlik, adolat; Alloh”. Bu so‘z eski o‘zbek tilida eng ko‘p qo‘llangan leksemalardan biridir. Misalan, “Haqqa hamd, andin so‘ngra ham na’t anga...” (“Lison ut-tayr”).

Haqiqat (حَقِيقَةٌ): “Asl voqelik, chinlik”. *Istihqoq* (اِسْتِحْقَاقٌ): “Haqlilik, munosiblik”.

x-s-s (خ-ص-ص) o‘zagi “xoslash, ajratish” ma’nolarini bildiradi.

Xos (خَاصٌّ) – “Alohida, maxsus, tanlangan”.

Xusus (خُصُوصٌ): “Tegishlilik, borasida”. *Ixtisos* (اِخْتِصَاصٌ): “Biror sohaga xoslanish”.

B.M.Grande bu turdagi o‘zaklarni boshqa somiy tillar bilan qiyoslab, qiziqarli kuzatish olib boradi. Uning aniqlashicha, arab tilida *sinnun* (tish), *lubbun* (mag‘iz), *dubbun* (ayiq) kabi ikkilangan undoshli so‘zlarning qadimgi efiop yoki yahudiy tillaridagi muqobillari ikkilanmagan, ya’ni sodda shaklda bo‘lgan. Bu hodisa shuni ko‘rsatadiki, ikkilanish (tashdid) hodisasi somiy tillar taraqqiyotining keyingi bosqichlarida, ehtimol, qadimgi ikki undoshli o‘zaklarni uch undoshlilik tizimiga moslashtirish uchun yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, eski o‘zbek tiliga o‘zlashgan sir, haq, xat kabi so‘zlarning tashdidli tuzilishi arab tili morfologiyasining o‘ziga xos tarixiy taraqqiyot mahsulidir.

Tilshunoslikda ba’zan shaklan o‘xshash, ammo ma’no jihatdan bir-biridan uzoq tuyulgan so‘zlarning tarixiy ildizlari umumiy bir nuqtada tutashadi. Eski o‘zbek tiliga o‘zlashgan *sinn* (tish), *sinon* (nayza uchi) va *sana* (yil) so‘zlari ana shunday chuqur mantiqiy va lisoniy bog‘liqlikka ega leksik birliklardir. Ularning o‘zaro aloqasini anglash uchun arab tilining o‘zak tizimi va qadimgi somiy tillarining tafakkur tarziga nazar solish lozim. Masalan, *sinn* va *sinon* so‘zlarining o‘zaro aloqadorligi yaqqol va shubhasizdir. Mumtoz arab leksikografiyasining eng qimmatli namunalaridan bo‘lgan Edvard Uilyam Leynning “Arabcha-inglizcha lug‘ati”ga ko‘ra, ikkala so‘z ham arab tilidagi *s-n-n* (س ن ن) o‘zagidan yasalgan. Bu muzoaf (ikkilangan) o‘zakning birlamchi ma’nosi “o‘tkirlamoq”, “charxlamoq”, “yo‘naltirmoq” kabi harakatlarni ifodalaydi [7; 1435–1437-b.].

Sinn (سِنٌّ – tish) so‘zi o‘zakning tabiiy, biologik ifodasidir. Tish o‘zining tabiatiga ko‘ra o‘tkir, kesuvchi va maydalovchi a’zodir. Shuningdek, arab tilida *sinn* so‘zi “yosh, umr” ma’nolarini ham anglatadi. Bu hodisa ko‘plab madaniyatlarda, jumladan, chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi turkiy xalqlarda ham, somiy xalqlarda ham keng qo‘llangani tarixiy haqiqatdir. Zamonaviy ilmiy adabiyotlar ham bu usulning ilmiy asoslarini tasdiqlaydi, chunki sutemizuvchilarda tishlarning chiqishi, almashinuvi va yeyilish darajasi yoshga bog‘liq qat’iy qonuniyatlarga bo‘ysunadi.

Sinon (سِنَانٌ – nayza uchi) so‘zi o‘zak ma’nosining sun’iy, ya’ni inson tomonidan yaratilgan ifodasi. Nayzaning uchi ham xuddi tish kabi o‘tkir va sanchiluvchi bo‘lishi uchun maxsus charxlanadi.

Mumtoz arab leksikografiyasiga ko‘ra, *sunnat* so‘zining birlamchi ma’nosi “aniq va takror yurilganidan silliqlashgan, charxlangan yo‘l”dir (a trodden or beaten path). Bu o‘zakning “o‘tkirlamoq, shakl bermoq” ma’nosidan kelib chiqqan mantiqiy kengayishdir: xuddi qurol o‘tkirlanganidek yoki toshga takror-takror ishlov berib silliqlanganidek, bir yo‘l ham ko‘pchilik yurganidan aniq va ravon bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, “sunnat” istilohi “an’ana, odat, avlodlar tomonidan sinalgan va qabul qilingan hayot tarzi, yo‘li” degan ko‘chma ma’noni kasb etgan [7;1438-b.].

Demak, “yaxshi charxlangan, aniq belgilangan yo‘l” va “yillar sinovidan o‘tgan” degan talqinlar so‘zning asl etimologiyasiga to‘liq mos keladi. Ogahiyning “Riyoz ud-davla” asaridan keltirgan parcha bu so‘zlarning badiiy tildagi go‘zal qo‘llanilishiga yorqin misoldir: “...ul viloyatlarning xaloyiqi o‘zlarin qavoyidi din-u millat va rusumi shar’-u *sunnat* ihyosida *sunniyi sanaviy* va musulmoni komil va sohibi yaqin tutub,..” [1;320-b.].

Sunniy (سُنِّيٌّ) – *sunnat* so‘zidan yasalgan nisbiy sifat bo‘lib, o‘zagi *s-n-n*. Ma’nosi – “sunnatga ergashuvchi”. *Sanaviy* (سَنَوِيٌّ) – bu o‘rinda “yil” ma’nosidagi *sana* (سَنَةٌ) so‘zidan emas, balki “shu’la, nur, yuksaklik, oliyjanoblik” ma’nosidagi sano (سَنَاءٌ) so‘zidan yasalgan. Uning o‘zagi *s-n-y/v*. Ma’nosi – “nurli, yuksak, oliyjanob”. Ogahiy bu ikki so‘zni yonma-yon qo‘llab, ohangdorlik va ma’no chuqurligiga erishgan. Ya’ni, ular o‘zlarini “shunchaki sunniy emas, balki nurli, yuksak martabali sunniy” deb biladilar. Bu so‘z o‘yini o‘quvchiga kuchli ta’sir o‘tkazadi. Ogahiy nasrida saj’, ya’ni qofiyali nasr juda keng qo‘llanadi. Yuqoridagi parchada *sunniyi sanaviy, musulmoni komil, sohibi yaqin* birikmalari shaklan va mazmunan bir-biriga mos kelib, o‘ziga xos ichki qofiya va ritm hosil qilmoqda.

Sana so‘ziga oid boshqa bir qarashlarga ko‘ra, qadimgi somiy tillaridan bo‘lgan akkad tilida “yil” ma’nosini anglatuvchi *šattu* so‘zi “o‘zgarmoq, takrorlanmoq” ma’nosidagi *šanû* fe’li bilan bog‘liq ekani taxmin qilinadi [6;385–389-b.]. Arab tilidagi sana so‘zining o‘zagi s-n-y ham “o‘zgarish” ma’nosiga ega. Demak, “yil” tushunchasining asosida *fasllarning o‘zgarishi, tabiat siklining takrorlanishi* yotadi.

B.M.Grande tasnifiga ko‘ra, g‘ayri solim o‘zaklarning ikkinchi yirik turi bu mahmuz (الْمَهْمُوز), ya’ni “hamzali” o‘zaklardir [3;31-b.]. Hamza (ء) – bu bo‘g‘izda hosil bo‘luvchi, portlovchi undosh tovush bo‘lib, uning o‘zak tarkibida kelishi so‘z yasalishi va turlanishida bir qator murakkab fonetik, ayniqsa, orfografik (imloviy) qoidalarni keltirib chiqaradi. Bu qoidalarning murakkabligi arab grammatikasining eng qadimgi namoyandasi Sibavayhning “Al-Kitob” asaridan tortib, zamonaviy tadqiqotlargacha muhim tahlil obyekti bo‘lib kelgan.

Hamzaning o‘zakdagi o‘rniga qarab mahmuz o‘zaklar uch turga bo‘linadi. Bu tasnif eski o‘zbek tiliga kirib kelgan so‘zlarning shakliy xilma-xilligini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

1. *Mahmuz ul-fo* (birinchi o‘zak undoshi – hamza). Bu turda o‘zakning birinchi undoshi hamza bo‘ladi. Bunday o‘zaklardan yasalgan so‘zlar eski o‘zbek tilida juda faol qo‘llangan. *a-m-r* (أ-م-ر) – buyurmoq ⇨ *amr* (buyruq), *amir* (hukmdor), *ma’mur* (boshqaruvchi). *a-x-z* (أ-خ-ذ) – olmoq ⇨ axz (olish), *ma’xuz* (olingan). a-k-l (أ-ك-ل) – yemoq ⇨ *akl* (yeyish, ovqat).

Bu turdagi o‘zaklardan fe’l yasalganda, ayniqsa IV bobda, ikki hamzaning yonma-yon kelishi natijasida fonetik o‘zgarish yuz berib, cho‘ziq “o” tovushi hosil bo‘ladi. Masalan, *a-m-n* o‘zagidan yasalgan *a’mana* (أَأْمَنَ) fe’li omana (آمَنَ – iymon keltirdi) shaklini oladi. Bundan *imon* va *mo‘min* so‘zlari ham yasalgan.

2. *Mahmuz ul-ayn* (ikkinchi o‘zak undoshi – hamza). Bu turda o‘zakning o‘rtasida hamza keladi. Bunday o‘zakli so‘zlarning imlosi arab tilida atrofidagi unlilarga bog‘liq murakkab qoidalarga asoslanadi [4;74–76-b.]. Eski o‘zbek tili bu so‘zlarni tayyor fonetik shaklda qabul qilgan. Masalan, *s-a-l* (س-أ-ل) – so‘ramoq ⇨ savol, *mas’ala, mas’ul, soil*.

r-a-s (ر-أ-س) – bosh ⇨ *rais, rayosat, ra’s*.

3. Mahmuz ul-lom (uchinchi o‘zak undoshi – hamza). O‘zakning oxirgi undoshi hamza bo‘lgan bu turdagi so‘zlar ham eski o‘zbek tilida keng tarqalgan. *q-r-a* (ق-ر-أ) – o‘qimoq ⇨ *qiroat, Qur’on, qoriy*.

b-d-a (ب-د-أ) – boshlamoq ⇨ *ibtido, mabda’*.

j-z-a (ج-ز-أ) – bo‘lak, qism ⇨ *juz’, juz’iy*.

n-sh-a (ن-ش-أ) – o‘smoq, paydo bo‘lmoq ⇨ *nash’u (namo), mansha’*.

Hamzali o‘zaklardan yasalgan so‘zlar eski o‘zbek tiliga o‘zlashish jarayonida muhim fonetik moslashuvni boshdan kechirgan. O‘zbek tili tabiatiga yot bo‘lgan bo‘g‘iz portlovchisi – hamza tovushi aksar hollarda talaffuzda soddalashtirilgan yoki butunlay tushib qoldirilgan. Masalan, mas’ul so‘zi masul, mo‘min so‘zi momin tarzida talaffuz qilinishi shu hodisaning izlaridir [5;52–53-b.]. Shunga qaramay, bu so‘zlarning imlosida arabcha asl shakliga sodiq qolishga harakat qilingan. Bu esa, o‘z navbatida, eski o‘zbek yozuvi va talaffuzi o‘rtasidagi farqlarni keltirib chiqargan.

B.M.Grande tasnifiga ko‘ra, g‘ayri solim o‘zaklarning eng katta va murakkab guruhi bu mu’tal (الْمُعْتَلّ), ya’ni “illatli, zaif” o‘zaklardir. Bunday o‘zaklar tarkibida somiy tillar uchun “zaif” hisoblangan undoshlar – vov (و) yoki yo (ي) ishtirok etadi. Bu ikki tovush tilshunoslikda yarim unlilar (semivowels) deb ham yuritiladi, chunki ular so‘z yasalishi jarayonida goh undosh, goh esa cho‘ziq unli (o/u yoki i/ye) vazifasini bajarib, turli fonetik o‘zgarishlarga uchraydi [3;33-b.]. Aynan shu o‘zgaruvchan tabiati sababli bu o‘zaklardan yasalgan so‘zlarning shakli, ko‘pincha, asl o‘zakdan uzoqlashgandek tuyuladi. Zaif undoshning o‘zakdagi o‘rniga qarab, Grande ularni uch asosiy turga ajratadi:

1. Misol: (الْمِثَال) – birinchi undoshi zaif o‘zaklar. Bu turdagi o‘zaklarning birinchi undoshi vov (و) yoki yo (ي) bo‘ladi. Ular fe’lning o‘tgan zamon shaklida, ko‘pincha, solim o‘zaklar kabi o‘zgarishsiz saqlangani uchun “misol” (ya’ni, “solimga o‘xshash”) deb atalgan. Eski o‘zbek tiliga bu turdagi o‘zaklardan yasalgan so‘zlar juda ko‘p o‘zlashgan.

v-j-d (و-ج-d) – topmoq, mavjud bo‘lmoq: *vujud* (مَوْجُودٌ), mavjud (مَوْجُودٌ), ijod (إِيجَادٌ).

v-s-l (و-ص-ل) – yetishmoq, bog‘lanmoq: *vasl* (وَصْلٌ), *visol* (وِصَالٌ), *muttasil* (مُتَّصِلٌ), *vasila* (وَسِيلَةٌ).

v-l-d (و-ل-d) – tug‘moq: *valad* (وَلَدٌ – farzand), *avlod* (أَوْلَادٌ), *volida* (وَالِدَةٌ – ona), *mavlud* (مَوْلُودٌ).

2. Ajvaf (الأَجْوَف) – ikkinchi undoshi zaif o‘zaklar. “Ajvaf” so‘zi “ichi bo‘sh” degan ma’noni anglatib, bu o‘zaklarning ikkinchi, ya’ni o‘rtasidagi undoshi vov (و) yoki yo (ي) ekaniga ishora qiladi. Bu zaif undosh qoliplarga tushganda, deyarli har doim cho‘ziq unliga aylanib ketadi va so‘zning o‘rtasi undoshsiz, “bo‘sh” bo‘lib qoladi.

q-v-l (ق-و-ل) – aytmoq: *qavl* (قَوْلٌ – so‘z), *qol* (قَالَ – aytdi), *maqol* (مَقَالٌ).

s-y-r (س-ي-ر) – yurmoq: *sayr* (سَيْرٌ), *sayyora* (سَيَّارَةٌ), *masir* (مَسِيرٌ – yo‘nalish).

3. Noqis (النَّاقِص) – uchinchi undoshi zaif o‘zaklar. Bu turdagi o‘zaklarning oxirgi undoshi zaif bo‘lgani uchun, ulardan yasalgan so‘zlarning oxiri turli grammatik holatlarda o‘zgarishlarga uchraydi va shu sababdan “noqis, nuqsonli” deb ataladi.

d-ʼ-v (د-ع-و) – chaqirmoq: *duo* (دُعَاءٌ), *daʼvat* (دَعْوَةٌ), *muddao* (مُدَّعَى).

r-z-y (ر-ض-ي) – rozi bo‘lmoq: *rizo* (رِضَا), *rozi* (رَاضٍ), *murtazo* (مُرْتَضَى).

Ko‘rinadiki, mu’tal (zaif) o‘zaklar arab tili morfologiyasining eng murakkab jihatlaridan biri bo‘lsada, aynan shu o‘zaklardan yasalgan so‘zlar – *vujud, visol, duo, rizo* kabilar eski o‘zbek adabiy tilining, xususan, tasavvufiy va ishqiy she’riyatning eng asosiy tushunchalarini ifodalash uchun xizmat qilgan. Bu so‘zlarning etimologiyasini bilish, ularning o‘zakdoshlarini aniqlash orqali mumtoz adiblar ijodidagi ma’no nozikliklarini yanada chuqurroq anglash mumkin.

Robert Dankoff va Jeyms Kelli o‘zining “Devon”ga yozgan kirish so‘zida bu holatni alohida ta’kidlaydi: “Koshg‘ariyning turkiy tilga oid grammatik tahlili butunlay arab grammatistlarining modeliga asoslangan” [2;17-b.]. Biz yuqorida B.M.Grande tasnifi asosida ko‘rib chiqqan arabcha o‘zaklarning turlari – solim (to‘g‘ri) va g‘ayri solim (noto‘g‘ri) Mahmud Koshg‘ariy tomonidan turkiy fe’llarni tasniflash uchun mohirona qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin. Mahmud Koshg‘ariy turkiy fe’l o‘zaklarini arabcha qoliplarga solib, ularni quyidagicha guruhlaydi:

1. Solim (الصحيح) o‘zaklar: Bunga undosh bilan tugagan, tarkibida “illatli” tovushi bo‘lmagan aksariyat turkiy fe’llarni kiritgan. Masalan, bardi, keldi, turdi kabi.

2. G‘ayri solim (غير الصحيح) o‘zaklar: Bu guruhni Koshg‘ariy arab tilidagi kabi bir necha turga ajratadi:

muzoaf (المضعف – ikkilangan). Arab tilida ikkinchi va uchinchi o‘zagi bir xil bo‘lgan fe’llar shunday atalsa, Koshg‘ariy bu terminni oxirgi undoshi ikkilanganday tuyuladigan turkiy fe’llarga nisbatan qo‘llaydi. Masalan, ur-, ber- kabi fe’llarning ba’zi shakllarida (urar, berar) oxirgi undosh ikkilanganday eshitiladi.

Misol: (المثال – solimga o‘xshash). Arab tilida birinchi undoshi v yoki y bo‘lgan fe’llar shunday atalsa, Koshg‘ariy bu terminni y tovushi bilan boshlanuvchi turkiy fe’llarga (masalan, yetdi, yedi) nisbatan ishlatgan.

Ajvaf (الأجوف – ichi bo‘sh): Arab tilida o‘rtasida “zaif” undosh bor fe’llar shunday ataladi. Turkiy tillarda bunday hodisa bo‘lmasa-da, Koshg‘ariy ba’zi o‘rinlarda o‘rtasidagi unlisi tushib qoladigan fe’llarni shu guruhga kiritishga harakat qilgan. Bu uning arabcha tizimga naqadar sodiq qolganini ko‘rsatadi.

Noqis (الناقص – nuqsonli). Arab tilida oxirgi undoshi “zaif” bo‘lgan fe’llar shunday ataladi. Koshg‘ariy bu terminni oxiri unli bilan tugagan turkiy fe’llarga nisbatan juda o‘rinli qo‘llagan. Masalan: *ag‘ri-* (og‘rimoq), *suva-* (suvamoq), *tashi-* (tashimoq) kabi [2;17-b.].

Mahmuz (المهموز – hamzali), arab tilida hamza ishtirok etgan fe’llar. Koshg‘ariy buni hamza tovushi bilan boshlanadigan ba’zi fe’llarga nisbatan qo‘llagan. Bundan tashqari, Koshg‘ariy turkiy so‘zlarning yasalishini ko‘rsatish uchun arab grammatistlarining an’anaviy fa-ʼa-la (فعل) qolipidan ham foydalangan.

Mazkur tadqiqotda arab tilidagi uch undoshli o‘zaklarning g‘ayri solim turlari va ulardan yasalgan so‘zlarning eski o‘zbek tiliga o‘zlashuvi qiyosiy-tarixiy, fonetik-morfologik va etimologik tahlil usullari asosida o‘rganildi. Tahlil uchun arab grammatik manbalari, klassik leksikografik asarlar hamda mumtoz o‘zbek adabiy matnlaridan tanlab olingan leksik birliklar material sifatida jalb etildi.

Qiyosiy-tarixiy tahlil natijasida muzoaf (ikkilangan) o‘zaklarning tashdid hodisasi bilan bog‘liq fonetik tabiati aniqlandi. Eski o‘zbek tiliga o‘zlashgan sirr, haq, xos, muddat kabi so‘zlarda tashdidli tuzilish saqlangan yoki talaffuz darajasida sezilib turgan. Bu holat arabcha o‘zak tuzilishining o‘zbek tilidagi fonetik moslashuv jarayonida nisbatan barqaror bo‘lganini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Mazkur tadqiqotda arab tilidagi uch undoshli o‘zaklar tizimi, xususan, g‘ayri solim o‘zaklarning asosiy turlari – muzoaf, mahmuz va mu’tal o‘zaklar B.M.Grande tasnifi asosida tahlil qilindi hamda ushbu o‘zaklardan yasalgan so‘zlarning eski o‘zbek tiliga

o‘zlashish jarayonidagi fonetik, morfologik va semantik xususiyatlari yoritildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, eski o‘zbek adabiy tilining muhim leksik qatlamini tashkil etuvchi ko‘plab mavhum va aniq tushunchalar arab tilining aynan g‘ayri solim o‘zaklar tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot arab tili morfologiyasi bilan eski o‘zbek leksikasining shakllanishi o‘rtasidagi uzviy aloqani ochib berib, mumtoz matnlarni etimologik va semantik jihatdan chuqurroq anglash imkonini yaratadi. Olingan natijalar tarixiy tilshunoslik, etimologiya, matnshunoslik hamda mumtoz adabiy merosni talqin qilishga qaratilgan keyingi tadqiqotlar uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Муҳаммад Ризо Огаҳий. Риёз уд-давла. Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. №5364//II, 355-бет.

(2). Dankoff R., Kelly J. Compendium of the Turkic Dialects (Dīwān Luyāt at-Turk). Part I. Harvard University Printing Office, 198, p. 416.

(3). Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. Москва, «Восточная литература», РАН, 2001, с. 585.

(4). Wright W.A Grammar of the Arabic Language. 3rd ed. Cambridge University Press, 1967, vol. 1, p. 166.

(5). Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. Тошкент, “Фан”, 1984, 160-бет.

(6). B.lack J., George A., Postgate N.A Concise Dictionary of Akkadian. Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2000, p. 480.

(7). Lane E.W. An Arabic-English Lexicon. London: Williams & Norgate, 1863, Book I, Part 4, p. 1756.

(8). Usmanova S. O‘zbek tilining lug‘at sostavida tojik-forscha va arabcha so‘zlar. T., 1968.

(9). Пейсиков Л.С. Вопросы синтаксиса персидского языка. М., МГИМО, 1959, 414 с.

(10). Ричард Ф. Наследие Ирана (Перев. с англ. В.А.Лившица и Е.В.Зеймаля). М., 1972, с. 185.

(11). Рубинчик Ю.А. Грамматический очерк персидского языка (Приложение к персидско-русскому словарю в двух томах под редакцией Ю.А.Рубинчика). М., 1970, с. 806.

(12). Халидов Б.З. Арабские заимствования в современном литературном языке пушту. Дисс. … канд. фил. наук, Л., 1953, с. 195.

Rahmonova Zamira Salohiddinovna (Samarqand viloyati Urgut tumani 90-maktab o‘qituvchisi; zamiraraxmonovaa@gmail.com)

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA SO‘ZLAR BIRIKUVCHANLIGINING O‘RGANILISHI

Annotatsiya. *Maqola jahon tilshunosligida so‘z birikuvchanligi muammosining tarixiy-nazariy rivojlanishini yoritadi. Bloomfield tasnifiga kiritilgan keyingi o‘zgartirishlar – Ch.Xokketning yadro pozitsiyasiga asoslangan ichki tasnifi, parataksis va gipotaksis tushunchalarining integratsiyasi, shuningdek, terminologiya muammolari ham ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *so‘z birikuvchanligi, kollokatsiya, sintagmatika, endotsentrik birikma, ekzotsentrik birikma, gipotaksis, parataksis.*

Рахмонова Замира Салахиддиновна (учитель школы № 90 Ургутского района Самаркандской области; zamiraraxmonovaa@gmail.com)

ИЗУЧЕНИЕ СПРЯЖЕНИЯ СЛОВ В МИРОВОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. *В статье освещается историко-теоретическая разработка проблемы лексики в мировом языкознании. Дальнейшие изменения в классификации Блумфилда-гл. Рассматривается также внутренняя классификация Хокке на основе положения ядра, интеграция понятий паратаксиса и гипотаксиса, а также проблемы терминологии.*

Ключевые слова: *словосочетание, словосочетание, синтагматика, эндоцентрическое соединение, экзоцентрическое соединение, гипотаксис, паратаксис.*

Rakhmonova Zamira Salakhiddinovna (Teacher of School № 90 in the Urghut District of the Samarkand; Regionzamiraraxmonovaa@gmail.com)

STUDY OF WORD CONJUNCTION IN WORLD LINGUISTICS

Annotation. *The article highlights the historical and theoretical development of the problem of vocabulary in world linguistics. Further changes in the Bloomfield classification-chap.The internal classification of Hokke based on the position of the nucleus, the integration of the concepts of parataxis and hypotaxis, as well as the problems of terminology are also considered.*

Keywords: *phrase, collocation, syntagmatics, endocentric compound, exocentric compound, hypotaxis, parataxis.*